



TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13989679>

Toshqo'rg'onov Rustam G'ayrat o'g'li

Bank moliya akademiyasi

Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti.

Loyiha boshqaruvi yo'nalishi. 23-35 guruh tinglovchisi

Ilmiy raxbar: TDIU kafedra dotsenti

PHD Axmedov H.R

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada korporativ boshqaruv haqida shuningdek tijorat banklaridagi masalalari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Bank tizimi, islohot, tijorat bank, xalqaro moliya, samara, boshqaruv, munosabat.

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tijorat banklarining xalqaro moliya bozorlarida mavqei mutahkamlanib ularning raqobatbardoshligi oshirilmoqda. Tijorat banklarining faoliyatida risklarni boshqarish tizimi va strategiyasini ishlab chiqishi hamda uni amalga oshirishni nazorat qilish, bank kengashining rolini oshirish va qarorlar qabul qilish protsedurasini takomillashtirish talab etiladi. Bunga esa bevosita tijorat banklarida korporativ boshqaruv shaklini keng joriy qilish orqali erishish mumkin. Shuningdek, banklarning mustaqil rivojlanishi va resurslarni samarali boshqarishi ularda bank menejmenti sifatini oshirishni talab etadi va bu ham korporativ boshqaruv bilan bog'liq. bankda korporativ boshqaruv deganda tijorat banki ma'muriyati, uning mulkdorlari va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning rejalashtirilgan, izchil rivojlanishini, bu munosabatlarda qat'iy harakatlar ketmaketligini ta'minlaydigan tartib tushuniladi, boshqacha aytganda, bu bank tomonidan qabul qilinadigan qoidalar va chora-tadbirlar majmui, korporativ munosabatlar ishtirokchilarining tegishli tartibli ijodiy harakatlarini ta'minlash uchun sanksiyalar va rag'batlantirish choralari. Bank operatsiyalari va bank xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi, naqd pul oqimlarini o'zgartirish tezligi va ularni qo'shimcha likvidlikka muhtoj hududlarga yo'naltirish, to'lovlarning aniq va o'z vaqtida amalga oshirilishi kredit tashkilotlarida korporativ boshqaruv tizimi qanchalik samarali qurilganiga bog'liq.



Bozor qonuniyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlari belgilangan davlatlarda korporativ boshqaruv amaliyotiga doimiy ravishda diqqat-e'tibor qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu boisdan mazkur masala xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning ham e'tiboridan chetda qolmasdan kelmoqda. Xususan, Jahon banki guruhi tomonidan har yili e'lon qilib kelinayotgan "Biznes yuritish" (Doing Business) hisobotlarida biznes yuritishga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida minoritar investorlar huquqlarini himoya qilish holati alohida davlatlar kesimida tahlil qilinib, reyting tuzib chiqilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalashuv jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilgan tijorat banklarida samarali korporativ boshqaruvning dolzarbliligi, ayniqsa, jahon va mahalliy moliya bozori tendensiyalarini o'zgaruvchanligiga ta'sirchanligini oshirilishi, tijorat banklarning reyting darajalarini yuqori ko'rsatgichlariga erishilishi, banklar uchun potensial investorlarni jalb qilinishida raqobatli kurash muxitini yaratilishini talab qiladi. Respublikamizda banklar faoliyatidagi tavakkalchiliklarni to'g'ri boshqarilishida, aksiyadorlarning huquqlarini himoyalash va qonuniy manfaatlarini ta'minlanishini kuchaytirish, foyda olishning kafolatlanganligini ta'minlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilinishida axborot shaffofligi bo'lishi hamda moliyaviy inqirozlarni oldini olinishida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bank egalari, kreditorlari va mijozlari manfaatlarini ortib borayotgan risklar va noaniqliklarning kuchayishidan munosib himoya qilishni ta'minlovchi korporativ boshqaruv alohida banklarning ham, butun bank tizimining barqaror faoliyat yuritishining hal qiluvchi omillaridan biriga aylanib bormoqda. Banklarda korporativ boshqaruvning asosiy modellari: anglo-sakson modeli, kontinental modeli va yapon modelidir. Modellarning har biri o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega.

- Quyidagilar samarali korporativ boshqaruvning asosi hisoblanadi:

- bank boshqaruvi organlari, muhim ahamiyatga ega xodimlari, shuningdek boshqa bank xodimlari javobgarlik sohalarining aniq tarzda taqsimlanishi;
- yetarli darajadagi hisobdorlik;
- o'zaro nazorat qilishni ta'minlovchi, bank boshqaruvi organlari va (yoki) bank tarkibiy tuzilmalari o'rtasidagi vakolatlarining taqsimlanishi;
- o'zining vakolatlari va vazifalarini yaxshi biluvchi, funksional vazifalarini bajarishda yuqori darajadagi ishbilarmonlik va odob-axloq qoidalariga rioya etuvchi, bank kuzatuv kengashining va ijroiya organining yuqori malakali a'zolari mavjudligi.

Bankning korporativ boshqaruv modellari bajaradigan asosiy funktsiya investorlarning vazifalarini amalga oshirish va ularning manfaatlarini himoya



qilishga yordam beradigan tizimni barpo etishdan iborat. Korporativ boshqaruv tizimini uchburchak shaklida tasvirlash mumkin, uning burchaklari aksiyadorlik jamiyatining ijro etuvchi organlari, uning direktorlar kengashi va aksiyadorlarning o'zlari. Korporativ boshqaruv organlarining faoliyati o'rta muddatli istiqbolda kompaniya faoliyati samaradorligini ta'minlash, shuningdek, uning strategik rivojlanish maqsadlariga muvaffaqiyatli erishishga qaratilgan. Bank - bu o'ziga xos tashkilot: bir tomondan, bank - bu foyda olishni maqsad qilgan tijorat korxonasi, boshqa tomondan, bank - bir qator bank faoliyatini amalga oshirish uchun mutlaq huquqqa ega bo'lgan kredit muassasasi. operatsiyalar va operatsiyalar. Ushbu operatsiyalar va operatsiyalarning tarkibi, shuningdek, resurslarni jalb qilish va taqsimlash uchun qo'llaniladigan yo'nalishlar bankni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy mas'uliyatli tashkilotga aylantiradi. Shu munosabat bilan bank korporativ boshqaruvining samarali tizimini tashkil etishning jamiyat uchun ahamiyati yanada ortib bormoqda. Aksiyadorlar va jamiyat boshqaruv organlari o'rtasidagi munosabatlar amaliyoti har doim ham talab qilinadigan shaffoflik, samaradorlik va aksiyadorlar va investorlar huquqlarini himoya qilish darajasiga mos kelmaydi. Bu qonunchilik talablari va qoidalarida o'z aksini topgan korporativ boshqaruv masalalariga, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va markaziy banklar darajasida korporativ boshqaruvning ilg'or tamoyillarini ishlab chiqishga keng qiziqish bilan izohlanadi.

Mamlakatimizdagi mavjud tijorat banklari faoliyatini boshqaruv mexanizmini shakllanishini takomillashtirish yo'llarini tahlili bo'yicha qilingan ilmiy tahlillar asosida quyidagilarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- Tijorat banklarini boshqarish jarayonidagi erkinligini ta'minlash, ularning faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvini bartaraf etish;

- Xalqaro moliya institutlari ko'magida bankdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda ularni institutsional o'zgartirishni (faoliyatini transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotishni nazarda tutish;

- Banklar faoliyatning amaldagi qonunchilik, ishonchli bank faoliyatiga muvofiqligini ta'minlash;

- Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini qo'llash va aksiyadorlar tomonidan axborotni o'z vaqtida hamda to'liq olishlarini ta'minlash;

- Mamlakatimizdagi tijorat banklarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlariga maslahatchi sifatida xalqaro konsultantlarni va chet ellik mutaxassislarni jalb qilish;

Tijorat banklari xizmat ko'rsatishning yuqori darajasi, vaqt sinovidan o'tgan ishonchlilik, boshqaruvning yuksak professionalizmi, ishdagi tezkorlik, davlat tomonidan qo'llabquvatlanishi, kapitallashuv darajasini yuqoriligi bank uchun



yildan yilga faoliyatning barqaror moliyaviy natijalariga erishishga imkon bermoqda. Milliy shkala bo'yicha respublika tijorat banklari moliyaviy holatini mustahkamlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksni izchil amalga oshirishi, rivojlanishning puxta o'ylangan strategiyasi, mavqeyi va obro'-e'tiborini bir maromda shakllantirishi hamda kredit qobiliyati reytingi "uzA+ barqaror" darajasida baholanib, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlarining "Fitch ratings" va "Standart&Poor's" "BB" darajali reyting baholariga ega bo'ldi. Respublika tijorat banklarida "korporativboshqarish tizimi joriy etilib, Bank kengashlari professional mahalliy va xalqaro ekspertlar hisobiga shakllantirilib, har bir bankning bozordagi o'rni va mavqeyini belgilovchi transformasiya strategiyalari ishlab chiqildi va bu jarayonlarda bank xizmatlarini raqamlashtirish, shaffof va sodda holda mijozlarga yetkazishga alohida" e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aktivlarining majburiyatlarga nisbati hamda kreditlarning depozitlarga nisbati kabi ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni nazorat qilib borish muhimdir. Tahlil natijalariga ko'ra bank tizimida aktivlarning majburiyatlarga nisbati 115-120 foiz atrofida bo'lmoqda. Bu ko'rsatkich bizga bank tizimi aktivlarining katta qismi majburiyatlardan tashkil topganligini bildirmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Vahobov. A.V, Malikov. T.S: Moliya. Darslik. T: "Noshir" Toshkent 2018-y. - 711 b.
2. Ashurov Z. A. O,,zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini zamonaviy xalqaro standartlar asosida innovasion rivojlantirish istiqbollari// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018-yil
3. Ashurov Z.A. Korporativ boshqaruv konsepsiyasi va mohiyati: ilmiy-nazariy yondashuvlar va ularni rivojlantirish. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. - Toshkent, 2015. - №6.
4. Rustamova D. Moliya bozorini tartibga solishning evolyutsiyasi. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. - Toshkent, 2016. - №2.
5. Usmonov Q.A, Byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2018. № 4